

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BRENDA KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinoz Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Bahodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxonqir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI.....	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA OLIISH SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHIIYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLIH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLIH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOBLAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

ISSUES OF THE ROLE OF SCIENCES IN HUMAN LIFE IN THE WORKS OF ABU RAYHAN BERUNI

Nosirkhodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna,
Professor at TSUL, PhD (Candidate of Philosophical Sciences)
E-mail: g.nosirxodjayeva@gmail.com

Abstract. This article examines the philosophical and historical works of Abu Rayhan Beruni, which constitute one of the significant yet insufficiently studied components of his extensive and multifaceted scholarly legacy. Particular attention is paid to his contribution to the study of the history of philosophy among the peoples of several regions.

Keywords: history of science; objectivity and reliability; theoretical and methodological approach; conceptual and methodological conclusions; philosophical and methodological issues.

ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna,
TDYU professori, f.f.n

Annotatsiya. Maqola Abu Rayhon Beruniyning keng va ko'p qirrali ilmiy merosining kam o'rganilgan muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan falsafiy-tarixiy ishlari va uning bir necha mintaqalar xalqlarining falsafa tarixini tadqiq etishga qo'shgan hissasini o'rganishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: fan tarixi, xolislik va haqqoniylik, nazariy-uslubiy yondashuv, konseptual-uslubiy xulosa, falsafiy-uslubiy masalalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N18>

Ilm-fan taraqqiyoti hozirgi kunda shu darajaga yetganki, olimlarning qo'lga kiritayotgan ulkan yutuqlari bevosita tabiatga, atrof-muhitga, hatto insonning ichki ma'naviy dunyosiga ham katta ta'sir etish imkoniyatiga ega. Bu ta'sir ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin[1]. Shuning uchun ilm-fanning insonning ma'naviy-ruhiy jihatdan shakllanishi va rivojlanishiga ta'siri muammosi nafaqat hozirgi olimlar, balki qadim zamonlardan mutafakkirlar e'tiborini o'ziga jalb etgan. Shu masalaga o'rta asrlardayoq jiddiy e'tibor bergan bizning vatandoshimiz buyuk qomuschi olim, jahon faniga ulkan hissa qo'shgan Abu Rayhon Beruniy edi. Bu keng va ko'p qirrali muammoda alloma fan tarixini o'rganish va uning ma'naviy jihatlarini aniqlash, fanning ahamiyatini chuqur yoritishga harakat qilgan. Beruniyning shu yo'nalishdagi ilgari zamonlarni ko'ra olishi, ilmiy bashoratlari g'oyat ajablanarli bo'lib hozirga qadar uning ahamiyati oshmoqda.

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, bu buyuk olimning nomi, ilmga qo'shgan hissalarini allaqachon jahon fani tarixida tan olinib, o'zining munosib bahosini topdi. Mashhur amerikalik

fan tarixchisi J.Sarton jahon fani rivojlanishidagi XI asr birinchi yarmini Beruniy davri deb atagan.

Beruniy ilmiy merosini tadqiq etishga, asarlarini nashr qilishga katta hissa qo'shgan o'zbek olimlari uning fan tarixidagi xizmatlari to'g'risida o'z mulohazalarini bayon etganlar. Atoqli o'zbek faylasufi I.M.Mo'minov shunday yozadi: "Beruniyning ilmiy qiziqishlari nihoyatda keng va turli-tuman bo'lgan. U qadimgi Yunonistondagi va arab xalifaligidagi fan tarixini, shuningdek o'z zamonasi fanini chuqur o'rgandi". Beruniy merosining yirik tadqiqotchilaridan biri P.G.Bulgakov ham o'z vaqtida uning fan tarixi sohasidagi xizmatlarini shunday ta'kidlagan: "U Sharqda tabiatshunoslikning ilk jiddiy tarixchilaridan biri bo'lib chiqdi va bizlar uchun kam tanilgan ajoyib Sharq mutafakkir va olimlar, xususan Eron Shahriy, Sulaymon Samarqandiy va boshqalar to'g'risidagi g'oyat qimmatli ma'lumotlarni saqlab qoldi".

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, Beruniy ilm-fan tarixini o'rganishda aniq va qimmatli ma'lumotlar to'plash bilan birga bu ishga nazariy-uslubiy nuqtai nazardan yondashishga harakat qilgan va shu yo'nalishda g'oyat qiziqarli va muhim natijalarga erishgan[2]. Qiziqarli tomoni shuki, Beruniyning fan tarixiga oid konseptual-uslubiy xulosalari, umumlashmalari zamonlar o'tishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, qayta hozirgi kunda o'zining haqiqiy qiymatini namoyon etyapti. Beruniy ilmiy-tarixi merosining davrimiz uchun zarurligining ikkinchi muhim tomoni shundan iboratki, u ilm-fan tarixini tiklashning ma'naviy-ruhiy ahamiyatini aniqlab, uning jamiyat, shaxs ma'naviy-axloqiy va aqliy shakllanishi va rivojlanishining muhim vositasi, omili sifatida talqin etdi va tafakkur tarixiga shu nuqtai nazardan yondashish kerakligini ta'kidladi[3].

Beruniy fikricha, ilm tarixining ma'naviy ahamiyati, ma'nosi, birinchi galda ilm-fanning ma'naviy mazmunidan, mohiyatidan kelib chiqadi. Alloma yozganiday "Ilmdan boshqa qanday narsada manfaat zohirroq va qandayida foyda ko'proq bo'ladi, faqat ilm bilangina ham din, ham dunyo uchun xayrli ishlarni qilish va ularga zarar keltirishdan saqlanish mumkin. Agar (ilm) bo'lmaganida (biz) jalb qilayotgan (narsa) yomonlik emasligiga va chetlanayotgan (narsa) yaxshilik emasligiga ishonch bo'lmas edi"[4].

Demak, Beruniy nazarida ilm-fan shu jumladan uning tarixi, inson uchun borliq haqida aniq va to'g'ri ma'lumot berishi bilan birga uning ma'naviy qadriyatlarini, ma'naviy dunyosini shakllanishiga, axloqiy barkamollikka, xususan yaxshilik va yomonlikni ajratishga qaratilgan muhim vosita va ma'naviy me'yor deb ta'riflanishi kerak[5].

Beruniyning fan tarixi, umuman tarixni o'rganish sohasidagi buyuk xizmatlaridan biri shundan iboratki, u birinchilardan bo'lib ilmni tadqiq etish uchun maxsus uslub ishlab chiqishga uringan. Bu uslub tadqiqotchi oldiga nafaqat sof ilmiy-nazariy, balki ma'naviy axloqiy talablarni qo'yadi va ularni bu uslubning ajralmas muhim tarkibiy qismi, komponenti deb ta'riflaydi. Bu uslubning ma'naviy tomonini Beruniy quyidagicha bayon etadi: "So'ngra buni ko'pchilik kishilarning tabiatini pastlashtiradigan yomon axloqdan, haqiqatni ko'rishga imkon bermaydigan omillardan o'zini tozalagandan keyin, ularni isbot uchun keltirgan so'z va e'tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi. Ana shu aytib o'tganim haqiqiy maqsadga yetkazuvchi eng yaxshi yo'l va bunga dog' tushiruvchi shak-shubhani yuvib tashlash uchun eng kuchli yordamchidir. Garchi qattiq urinib zo'r mashaqqat cheksak ham o'shandan boshqa yo'l bilan maqsadga erisholmaymiz"[6].

Tafakkur tarixi muammolari bilan shug'ullanadigan, uning falsafiy-uslubiy masalalari ustida bosh qotiradigan tadqiqotchi birinchi galda fanlarni kelib chiqish masalasi bilan

to'qnashadi. Shuning uchun Beruniy ham bu masalani maxsus tarzda qo'yib, ularning paydo bo'lishi jarayonini qo'yidagicha ta'riflaydi: "Ilmiylarning holati mana shudir, shunga ko'ra ular tarmoqlarga ajralib ketgan. Ularga ehtiyojning paydo bo'lishi esa ularning keltiradigan manfaatidir, lekin ular yordamida topiladigan kumush va oltinlarda emas". Bu ehtiyojlar albatta moddiy va ma'naviy bo'lishi mumkin. Lekin Beruniy maxsus qayd qiladiki, haqiqiy ilmlar kelib chiqishi aslida tor manfaat va tamagirlik bilan bog'lanmaslik kerak. Ya'ni har qanaqa fan ham kelib chiqishda insondagi ma'lum ma'naviy qadriyatlarga borib taqaladi.

Olim bir necha fanlarning paydo bo'lish sabablarini ko'rib chiqib, ular orasidan bevosita inson ma'naviyatini takomillashtirishga qaratilganlarini ajratadi. Shulardan balog'ani, poetikani, mantiqni ko'rsatish mumkin. Masalan balog'ani quyidagicha ta'riflaydi: "Agar uning manfaati haqida so'ralsa, bu uning o'z zotida – fazilatidir. Bu haqida payg'ambar alayhissalom "Haqiqatan notiqlikda sehrli (kuch) bor", degan. Balog'aning mavjudligi tufayli islom va imonning asli bo'lmish Qur'onning o'z qiluvchiligi isbotlanadi".

Beruniy hatto u yoki bu fanni keltirgan moddiy ehtiyojlarini tahlil qilganda uning ma'naviy ehtiyojlari bilan bog'liqligini ko'rsatishga va ularning o'zaro munosabatlarini ochib berishga harakat qiladi. Shunga yorqin misol qilib geodeziyani keltirish mumkin. Uning paydo bo'lishining asosiy sababi, bir tomondan azimuth va boshqa o'lchovlarni aniqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, diniy-ma'naviy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq. "Biz qibla azimuthini aniqlashga qattiq ehtiyojimiz tushishi hamda (qibla) islomning ustuni va qutba bo'lganligi uchun bu haqda bizga kerakli narsalarni bayon qilaylik[7]. Olloh taolo aytgan: "Qayerdan chiqqan bo'lsang ham yuzingni masjid alharom tomoniga ogir, qayerda bo'lsangiz ham yuzingizni uning tomoniga o'giring" [8].

Fanlarning kelib chiqishi sabablarini ko'rsatganda Beruniy bu muammoning yana bir muhim ma'naviy tomonini ochib beradi. U ham bo'lsa bu jarayonning inson ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lishi va tabiat, jamiyat, insonlar oldida ma'lum burch va xizmatlarni bajarishi kerakligi bilan belgilanadi.

Ilm-fanlar tarixini o'rganishga Beruniy bashariyat miqyosida yondashgan. Tarixiy-ilmiy jarayonning bir butunligi va yahlidligi avvalo, odamzod bir negizdan kelib chiqishi bilan izohlanadi. "Odamlar, — deb yozdi Beruniy, — hammasi bir otaning farzandlari bo'lib, bir-biriga o'z qiyofasi bilan o'xshab ketadi". Bu esa insoniy sivilizatsiyaning, shu jumladan fan tarixining bir butunligini, aloqadorligini belgilaydi. Lekin, ilm-fanning bashariyat miqyosidagi birligining yana bir sababi bor, u ham bo'lsa, ilmning qaysi xalqda bo'lishidan qat'iy nazar maqsad, uslub va vositalarning bir-biriga yaqinligi va ko'p holatlarda yagonaligi ham desak bo'ladi. Masalan, har bir fanning maqsadi borliqning ma'lum bir tomonini bilishdir. Ana shu maqsadga qarab ilmiy uslublar uslublar, vositalar ham ishlab chiqiladi. Albatta, har xil xalqlarda, mintaqalarda, rivojlanayotgan fanlarning uslub, vositalari ma'lum darajada farq qilishi mumkin. "Hindiston" asarida Beruniy Mahmud G'aznaviy tomonidan Hindistonga qilgan yurishlarining oqibatlari to'g'risida gapirganda, birinchi galda, ularning ilm rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgani to'g'risida qayg'uradi. Xususan, G'azna hokimlarining Hindistonga qilgan yurishlarini ta'riflab, hind xalqiga qanchalik qirg'in keltirganini ta'kidlaydi va bu esa o'z navbatida ayrim hindlarda musulmonlar to'g'risida noto'g'ri tasavvur paydo bo'lib, mazkur xalqlarda ma'lum darajada uzoqlashish yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi. Ilm-fan borasida u quyidagicha xulosaga keladi: "Balki bu hodisalar bosib olingan mamlakatlardan ulardagi ilmlarning yo'qolishiga, Kashmir, Banoras va bularga o'xshash haligacha qo'limiz yetmaydigan

joylarga qochishga sabab bo'lgandir. Shu bilan birga u tomonlarda siyosat va diyonat sababli chet kishilarning barchasi bilan aloqa juda uzilgan"[9]. Lekin fan rivojlanishining yirik ijtimoiy hodisalar va shaxslardan tashqari olimlarning shaxsiy xislatlari va mayllariga ham ma'lum miqdorda aloqadorligi bor. Masalan ayrim olimlar haqida gap ketganda Beruniy shunday deb yozadi: "O'zlarini yuqori tutib, bemani harakat qiladilar va kibrlanib bilimsiz qoladilar. O'rgangan narsalariga baxllik qilib, o'z jinslaridan bo'lsa ham, noahl kishiga o'rgatmaydilar. Shunday bo'lgandan keyin boshqalarga qanday o'rgatsinlar! Chunki ular mamlakatlaridan boshqa mamlakat borligiga, u mamlakatlarda ham xalqning yashashligiga va o'zlaridan boshqa xalqlarda ham ilm borligiga ishonmaydilar". Ana shunday nojo'ya harakatlar olimlarning ilmiy aloqalar o'rnatishiga xalaqit beradi.

Boshqa xalqlar madaniyati, fan tarixi, umuman ma'naviyatini o'rganishda obyektivlik, haqiqat yo'lidan borish kerakligini ta'kidlab, Beruniy bu talabga eng avvalo o'zi qat'iy amal qiladi. O'zining "Hindiston" kitobi to'g'risida quyidagicha fikr yuritadi: "Bu kitob bahslashish va tortishish kitobi emas, shuning uchun bu kitobda dushmanlar isbotini keltirmayman va haqiqatdan chetga chiqqanlarga qarshilik ko'rsatmayman. Bu faqatgina bayon qilish kitobidir, xolos".

Umuman, Beruniy dunyoqarashiga xos bo'lgan ma'rifatparvarlik, ilmni tarqatish ishtiyoqi fan tarixi sohasida o'zining yorqin ifodasini topadi. Chunki yuqorida qayd etilgan Beruniyning fan tarixiga umumbashariy birlik nuqtai nazaridan yondashish, ilm-fan yutuqlari bilan boshqa xalq olimlarini tanishtirish kerakligi prinsipial nazariy g'oya tusini oladi. O'zining yozishicha, u hindlar uchun tarjimalar bilan shug'ullanar ekan, "ilm tarqatishga va ularda yo'q ilmning ularda ham bo'lishiga qiziqdi" va boshqa joyda bu fikrni davom ettirib "Mening butun fikriyodim, qalbim bilimlarni targ'ib qilishga qaratilgan, chunki men bilim orttirish lazzatidan bahramand bo'ldim. Buni men o'zim uchun eng katta baxt deb hisoblayman"[10].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мамунова Н. Абу Райхон Берунийнинг илм-фан ва маънавият ҳақидаги қарашлари. – Т.: Фан, 2005.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Tanlangan asarlar. I tom. – Т.: Fan, 1968. – В.40.
3. Абу Райхон Беруни. Хронология древних народов (Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар). – Т.: Фан, 1968.
4. Абу Райхон Беруни. Фармакогнозия (Китоб ас-Сайдана фи-т-тиб). – Т.: Фан, 1974.
5. Абу Райхон Беруни. Минералогия (Китоб ал-Жамоҳир фи маърифат ал-ҷавоҳир). – Т.: Фан, 1973.
6. Абу Райхан Беруни. Избранные произведения.. – Т.: Фан, 1963. – S.21.
7. Абу Райхон Беруни. Геодезия // Избранные произведения. – Т.: Фан, 1966.
8. Abu Rayhon Beruniy. Turar joylar orasidagi masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash. Geodeziya. Tanlangan asarlar. III tom. – Т.: Fan, 1982. – В.61 – 68.
9. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. – В.115.
10. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. – В.28.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).